

**MEDIATA'LIM ASOSIDA ISHLAB CHIQILGAN
“SCIENCE SUBJECTS” ELEKTRON O'QUV QO'LLANMASINING
TUZILISHI VA IMKONIYATLARI**


G‘aniyeva Gulhayo Islom qizi
Termiz davlat pedagogika instituti
“Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasи o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda dunyo miqyosida tabiatshunoslik fanini multimedia vositalari asosida o‘qitishni takomillashtirish, xalqaro baholash dasturlari darsda o‘quvchilarni tabiiy-ilmiy savodxonligini oshirish sohasida keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirishga bo‘lgan ehtiyoj yanada kuchaymoqda. BMTning ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha “Ma’rifiy, ma’naviy va madaniy mazmundagi materiallarni olib kirish” to‘g‘risidagi bitimida dunyo miqyosida ta’lim oluvchilarni o‘qitish sifatiga nisbatan keng sharoitlar yaratish, ta’lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish alohida ahamiyatga ega. Bu borada samaradorlikka erishish hamda multimedia vositalarining rolini va ta’sirini oshirish, mavjud muammolarni konseptual o‘rganish va tahlil qilish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Kalit so‘zlar: “tabiat”, “tabiat va biz”, “mediata’lim”, “metodlar”, “ta’lim texnologiyalari”, “multimedia vositalari”.

Mediata’lim asosida ishlab chiqilgan “SCIENCE SUBJECTS” elektron o‘quv qo‘llanmasi giperhavola tizimiga ega bo‘lib, oflays rejimda ishlaydi. Unda, asosan, tabiiy fanlar mavzulari mediamabarlar (video, audio, foto, simulatsiya, animatsiya va boshqalar) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tushunishi oson bo‘lgan sodda tilda tushuntirilagan. Mediata’lim asosida ishlab chiqilgan boshlang‘ich sinflar “SCIENCE SUBJECTS” elektron o‘quv qo‘llanmasi quyidagi tuzilishiga ega.



2.1-rasm III-IV-sinflar “SCIENCE SUBJECTS” elektron o‘quv qo‘llanmasining tuzilishi

Boshlang‘ich sinflarda “SCIENCE SUBJECTS” elektron o‘quv qo‘llanmasi tuzilishi va imkoniyatlari: ushbu o‘quv qo‘llanmasi giperhavola tizimiga ega bo‘lib, oflayn rejimda ishlaydi. Unda asosan , quyidagi bo‘limlar taqdim etiladi:

- tabiatshunoslik fani bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalar bo‘limi;
- bolalar ensiklopediyasi bo‘limi;
- ona tabiat roliklari bo‘limi;
- o‘quvchilar uchun maxsus PIRLS topshiriqlari bo‘limi;
- 4 ta qismdan iborat bo‘lgan tabiat manzaralari bo‘limi;
- bilimlarni mustahkamlashga mo‘ljallangan o‘quv o‘yini bo‘limi.

Boshlang‘ich sinflarda “SCIENCE SUBJECT” elektron o‘quv qo‘llanmasi quyidagi didaktik imkoniyatlarga ega: o‘quvchilarning tabiiy fanlardan olgan nazariy bilimlarini, amaliy ko‘nikma, malaka va kompetentsiyalarini rivojlantirish, mustahkamlash; dars vaqtini tejash; o‘qituvchilarga metodik yordam ko‘rsatishni tashkil etish; darsni yanada qiziqarli va mazmunli tashkil etish; test tizimidan foydalangan holda, o‘quvchilar o‘zini o‘zi baholash orqali yangi bilimlarga ega bo‘lishlari; o‘quvchilarda dasturiy vositalar bilan ishlash ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish. Shuningdek, elektron o‘quv qo‘llanma o‘quvchilarda mustaqil ishslash qobiliyatlarini shakllantiradi, tabiatni to‘liq tasavvur qilish bilan birga, ularning bu faniga bo‘lgan qiziqishlarini ham oshirishga yordam beradi.


Mazkur elektron o‘quv qo‘llanma boshlang‘ich sinflar tabiiy fanlar darsligi asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, sinfni tanlash orqali kitobni ochib o‘qish mumkin bo‘ladi. Bu elektron qo‘llanma murakkabliklardan holi bo‘lib, sodda ko‘rinishga ega. Undan o‘quvchilar ortiqcha qiyinchiliklarsiz foydalana olishlari mumkin. Unda quyidagi tugmachalar mavjud:

- “Dasturga kirish” – dasturni boshlash;
- “Mavzular” – mavzular bo‘limiga o‘tish;
- “Testlar” – testlar bo‘limiga o‘tish;

“Darslikning elektron varianti – III-IV-sinflar tabiatshunoslik darsligining pdf formatdagi o‘zbek tilidagi elektron variant

- “Keyingi slaydga o‘tish”;
- “Oldingi slaydga o‘tish”;
- “Mundarija” – mavzular bo‘limiga qaytish;
- “Menyu”-asosiy menyuga o‘tish. Dasturdan chiqish uchun ekrandagi tugmasi bosiladi. “Testlar” bo‘limiga o‘tilganda, jami bir testda 10 ta variantda bo‘lib, bu butun “Tabiatshunoslik” fani bo‘yicha tuzib chiqilgan. Boshlang‘ich sinflarda “SCIENCE

SUBJECTS”” elektron o‘quv qo‘llanma quyidagi didaktik imkoniyatlarga ega: o‘quvchilarning tabiat, olam, o‘simliklar, hayvonot olami haqidagi bilimlarini mustahkamlash; tasavvurlarini rivojlantiradi; telekommunikatsiyalar yordamida tabiatshunoslik ta’limining turli masalalari bo‘yicha Internet aloqasini rivojlantirish; test tizimidan foydalangan holda, o‘quvchilar o‘zini o‘zi baholash orqali yangi bilimlarga ega bo‘lish; o‘quvchilarda dasturiy vositalar bilan ishslash ko‘nikmalarini shakllantirish.



2.2-rasm “SCIENCE SUBJECTS” elektron multimediali o‘quv qo‘llanmasi



2.3-rasm. “SCIENCE SUBJECTS” elektron multimediali o‘quv qo‘llanmasi

Shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda dunyo jadallik bilan rivojlanishga yuz tutgan. XXI asr texnika va texnologiyalar asri ekanligi hech kimga sir emas. Biz ham shu yo'ldan borib, axborot va innovatsion texnologiyalardan foydalanilgan holda tabiatshunoslikni o'qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi multimediali elektron o'quv qo'llanmani ishlab chiqishga harakat qildik. Bu o'quv qo'llanma yosh avlod tarbiyasida va uning borliq haqidagi bilimlarini rivojlantirishga yordam berishiga ishonamiz.

Mediata'lism asosida ishlab chiqilgan elektron o'quv qo'llanmadan foydalanib tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi. Tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi – uzlusiz ta'lism tizimida, shuningdek, ta'lism muassasasidan tashqarida hamda mustaqil ta'lism olishda tabiat haqidagi bilimlar sistemasini shakllantirish jarayoni bo'lib, o'z ichiga quyidagi pedagogik maqsadlarni qamrab oladi:

Ta'limiylar: tabiiy fanlar asoslariga oid bilimlarni egallash – boshlang'ich tabiat to'g'risidagi tushunchalarni shakllantirishda quyidagi asosiy va maxsus bilimlar sistemasini o'z ichiga oladi:

- tabiiy fanlarni fan sifatida rivojlanishi;
- uning asosiy bo'limlari, usullari va vositalarini bilish va tushunish;

Tarbiyaviy: Tabiat haqidagi umumlashgan bilimlarni berishda, dunyoning umumiyligi qonuniyatlarini tushuntirish, insonning tabiatdagi o'rni, uning tabiatga munosabatini umuminsoniy qadriyatlar orqali tushuntirish yo'li bilan o'sib kelayotgan avlodda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish, bilish imkoniyatlarini shakllantirish, ularni mustaqil va mantiqiy fikr yuritishga, ma'lumotlarni va olgan bilimlarini umumlashtira olishga, oddiy mantiqiy fikrlashdan tortib chuqur nazariy tahlillar qilishga o'rgatish.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, mediata'lism asosida ishlab chiqilgan "SCIENCE SUBJECTS" elektron o'quv qo'llanmasidan umumiyligi o'rta ta'lism matabining boshlang'ich sinflarida foydalanish mumkin. Darslarda bu dasturiy-pedagogik vositadan foydalanishda asosan quyidagi uch jihatga e'tibor qaratishimiz zarur:

- dasturiy-pedagogik vositadan foydalangan holda namunaviy rejalshtirish;
- dasturiy-pedagogik vosita konkret darslarda foydalanish metodikasi;
- dasturiy-pedagogik vositadan foydalanishning taskiliy jihatlari.

O'quvchilarning tabiiy fanlar haqidagi bilimlarini shakllantirishning turli bosqichlarida maqsad va vazifalar ham turlicha bo'ladi. Tabiiy fanlardagi asosiy o'quv dasturlari mazmunidan kelib chiqib, IV-sinfda tabiatni o'rganishda o'quvchilar yulduzlar, Quyosh, sayyoralar, Quyosh sistemasidagi boshqa osmon jismlari, Oy –

Yerning tabiiy yo‘ldoshi, Yer shari, globus, kun va tun,-yil fasllari kabi minimal tushunchalarni bilishlari kerak.

Shunday qilib, boshlang‘ich sinfdanoq ta’limiy sifat jihatidan tabiiy fanlarga ilmiy yondashish, jismlar va hodisalarining tabiatini to‘g‘risidagi boshlang‘ich tushunchalarni shakllantirishga jiddiy e’tibor qaratishimiz zarur. O‘quvchilarda tabiiy fanlarga oid tushunchalarning shakllanishi va rivojlanishi uzoq davom etadigan jarayon hisoblanadi. Tabiiy fanlar darslarida odatdagi namoyishlar uchun quyidagi ko‘rgazmali qurollar qo‘llaniladi: Yer shari globusi, xarita, shamol, havo temperaturasini, namligini o‘lchovchi asbob-uskunalar va boshqalar.

“SCIENCE SUBJECTS” elektron o‘quv qo‘llanmasi tarkibiga kiritilgan interfaol modellar, va rasmlar ushbu ko‘rgazmali qurollarni to‘ldiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Norbo‘taev X.B. Boshlang‘ich sinf tabiatshunoslik darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasi // Zamonaviy ta’lim. – Toshkent, 2016. - № 6. – S. 34 – 39.
2. Narbayev A.B. Mediatechnologiya vositalaridan foydalanish astronomiya o‘qitishda samaradorlikni oshirishning muhim omili. //O‘zMU xabarlari. -Toshkent, 2018. -B. 268-272.
3. Norbo‘taev X., Eshquvvatov Sh. Boshlang‘ich sinflarda didaktik o‘yinli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi // Zamonaviy ta’lim. – Toshkent, 2015. - № 6. – B. 67 – 68.
4. Rayhon Beruniy. Tarayhalar (Javohirot kitobidan) -T.: Meros, 1991.47
5. Bahromov A.D., Sharipov Sh., Nabieva M. Tabiatshunoslik. Umumiyo o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. –T.; Cho‘lpon, 2019 y.-126 b.
6. Бекетова О.А. Инновация в образовании: понятие и сущность // Теория и практика образования в современном мире: материалы Междунар. науч. конф. Июль. 2014 г. – Санкт-Петербург, 2014. – СПб.: Сатис, 2014. – С. 1 – 2.